

## Zulfiya She'riyatida Badiiy Tasvir Vositalarining Qo'llanishi

**Ibragimova Madina Normat qizi**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti filologiya va san'at fakulteti o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Adabiyotda badiiy tasvir vositalari badiiy asardagi va she'rlardagi ko'zda tutilgan g'oyalarning ta'sirchanroq bo'lishini, qahramonlarning ruhiy holatini yanada yorqinroq aks ettirilishini ta'minlaydi. Ushbu maqolada shoira Zulfiya ijodiga oid she'riy namunalardagi badiiy tasvir vositalarining qo'llanishi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** tasvir vositalari, o'xshatish, epitet, jonlantirish.

### Kirish

She'riyatimizning ardoqli vakillaridan biri Zulfiyaxonim Isroilova o'zining betakror ijod namunalari bilan alohida ajralib turadi. Shoira ijodining mavzu ko'lami, uning lirik qahramonlari she'r shaydolarini o'ziga rom etmay qo'ymaydi. Uning she'rlarida ayniqsa, xotin-qizlar - ulardagi nozik tuyg'ular vasfi, umuminsoniy g'oyalar yaqqol ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, shoira turmush o'rtog'i – Hamid Olimjon vafot etgach, she'rlaridagi ruhiy kechinmalar, ko'ngil sadolari uning ijodida sezilarli o'zgarishlar bo'lganini tasdiqlaydi. Ba'zilar Zulfiya she'riyatini pessimistik ruhda deb baholagan, lekin bu haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Adabiyotshunos Ibrohim G'afurov o'zining "Yurak shu'lasi" nomli maqolasida shoira ijodiga "Zulfiya she'riyati tugal optimistik, insonga va dunyoga, uning kelajagiga nekin ishonch bilan qaraydigan she'riyat", deb haqqoniy baho bergan.

Chunki shoira pessimistik ruhda she'rlar yozganida uning ijodida "Bahor keldi seni so'roqlab", "Seni kuylayman hayot" kabi umidbaxsh she'rlar yuzaga kelmagan bo'lardi.

### Asosiy qism

Badiiy adabiyotda hech bir asarni, she'rlarni turli tasvir vositalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki u o'z nomi bilan "badiiy adabiyot", badiiylik esa so'zga jilo berishni, oddiy narsalarni ham o'zgacha tasvirlashni talab qiladi. Bular esa turli o'xshatishlar, jonlantirishlar, turli she'riy san'atlar orqali yuzaga keladi.

Badiiy adabiyotda tasvir vositalari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: so'zlardagi ma'no ko'chish turlari, she'riy san'atlar – turli ko'chimlar, mubolag'a, jonlantirish, antiteza, epitet va boshqalar.

Zulfiya ijodida "Hijron kunlarida" nomli she'r va shu nomdagi kichkina to'plam alohida ahamiyatga ega. Ushbu to'plam 1944-yilda chop etilgan bo'lib, undagi hissiy kechinmalarni to'liq tushunish, qalban his qilish uchun o'sha kunlarning dahshatini bir marta bo'lsa ham anglash kerak. Shoira ayni shu yili tumush o'rtog'idan ayrilishi bu otashin to'plamning bunyod bo'lishiga turtki bo'ldi. Atoqli shoirimiz Erkin Vohidov bu to'plam haqida o'zining "Shoira hayot qo'shig'i" nomli xotirotida "Hijron kunlarida" kitobi bilan o'zbekning yurtida shoira tug'ildi, ayol zotining fidoyilik va bardosh, jasorat va nazokat, umid va o'kinch to'la sadosi bo'lib shoira dunyoga kelgan kundan boqiyiligini ta'min etdi" degan edi.

"Hijron kunlarida" she'ri shoira qalbidagi sog'inch ifodasi bilan boshlangan:

Ey sevgisi aziz, ey sevimli yor,  
Ketma, aslo ketma ko'zimdanda yiroq!  
Garchi tushimda ham seni bir ko'rish –  
Hijron kunlaridan ming bor yaxshiroq.

Shoira yoriga qarata "ey sevgisi aziz" deya murojaat qilar ekan, turmush o'rtog'i o'zidan uzoqda bo'lsa ham uning so'nmas sevgisi hamisha u bilan hamrohligini ta'kidlaganday bo'ladi. Ikkinchi misrada "ketma" so'zining ikki marta ketma-ket qo'llanishi ta'sirchanlikni yanada oshirishga xizmat qilgan. Keyingi misradagi gapda "ham" so'ziga e'tibor qaratsak, shoira nima demoqchi ekanligini to'liq anglaymiz: "ham" so'zini barmoq vazni talabi bilan qo'llagan deyish mumkin, lekin uning o'rnida "garchi tushlarimda seni bir ko'rish" deganida ham vazn buzilmasdi, shoira yorining kunduzlari ham ko'z o'ngida ekanini bildirib o'tish maqsadida "ham" so'zini qo'llagan.

She'ning qolgan bandlarida shoira tushi davom etadi. Tushida yorining kelishini intiqlik bilan kutganini uning oldiga "qushday uchib chiqqani" dan bilish mumkin. Banddagi "darhol" so'ziga qo'shimcha ravishda "qushday" sifatlashi ma'no kuchayishiga xizmat qilgan:

Kelib derazamdan boqding jilmayib,  
Ko'rdim-u, sevinchdan tilim bo'ldi lol.  
Bir nafasga keldim, - deding, - ko'rgali  
Qushday uchib chiqdim oldingga darhol.

So'nggi bandga kelib qushlarning ovozidan cho'chib uyg'onadi va tong otishiga nisbatan "ol" sifatlashini ishlatadi va bu she'r mazmunini yanada yorqinroq bo'lishiga xizmat qilgan:

Men uyg'onib qoldim. Qalbim bezovta,  
So'ngra bedor o'tdim ol tong otguncha,  
Ham tushda, ham o'ngda izlaymman seni,  
Sen yovni yo'qotib omon qaytguncha!

Zulfiya ijodining go'zal namunalaridan biri "Xayollar" she'ri. Ushbu she'rda shoira badiiy tasvir vositalari sifatida o'xshatish, epitet-sifatlash, apostrofa-jonlantirishdan ko'p o'rinda foydalangan va bular she'rni yanada ko'rkam qilgan. Bilamiz, o'xshatish bir narsani ikkinchi bir boshqa narsaga qiyoslash orqali yuzaga keladi va uning vositalari sifatida odatda -day, -dek qo'shimchalari, kabi, yanglig' so'zlari qo'llaniladi. Shoira yuqorida nomi keltirilgan "Xayollar" she'ridagi o'xshatishlar bir o'rinda kabi so'zi va qolgan o'rinlarda -day qo'shimchasi yordamida hosil qilingan:

...Oqqush kabi yengil va ko'rkam,  
Men-la kechib o'tasiz suvni.

Ko'z yoshiday tiniq har buloq  
Tabiatga tutar oyina  
Mag'rur boshin qorga o'rab tog'  
Aks etadi bir oppoq siyna.

Ushbu she'rda birinchi navbatda bosh obraz bo'lgan xayol jonlantirilgan. Yana bir e'tiborli jihati jonlantirish va o'xshatish bir bandda qo'llangan va ular bir-birini to'ldirgan desak, mubolag'a bo'lmaydi:

Ey xayollar, yelday sezdirmay  
Kelasiz-u chulg'aysiz o'yim.

Qolgan bandlar davomida tosh-xarsanglar:

Cho'l chechagin menga tutqizar

Qirg'oqdagi har tosh, har xarsang

g'uncha va sohil ham jonlantiriladi:

Oqshom g'uncha atab ketganim

Xandon kulib boqsa ertalab,

Salqin kecha kamol toptirgan

Sohil mendan qilsa she'r talab.

Epitet – narsa va hodislar, tushunchalarga xos xususiyatlarni obrzali tasvirlashdir. Zulfiyaning "Xayollar" she'rida bir necha o'rinda epitet (sifatlash) uchramiz: "Dil qanotsiz qush bilan tengdir", "Tun uxlaydi shirin uyquda", "Sehrgarsiz, tirik xayollar". Bularning orasida "shirin uyqu", "tirik xayollar" birikmalari istiorali epitet ya'ni uyqu va xayolga boshqa narsalarning sifati ko'chirilgan. Chunki "shirin"lik xususiyati iste'mol qilinadigan narsalarga xos bo'lsa, "tirik"lik xususiyati biror bir organizmga xos, xayol esa mavhum tushuncha.

Shoiraning ko'ngillarimizdan chuqur joy olgan yana bir namunasi "Bahor keldi seni so'roqlab" she'ridir. Ushbu she'rda deyarli boshidan oxirigacha jonlantirish qo'llangan. Bizga ma'lum bo'lganidek, jonlantirishning ikki xil ko'rinishi bor: birinchisi jonsiz predmetlarni harakatga keltirish, ikkinchisi intoq- nutqsiz predmetlarni nutq egasi sifatida tasvirlash. Zulfiya o'z she'rlarida asosan, intoqdan ko'p foydalangan. "Bahor keldi seni so'roqlab" she'rida ham bosh obraz sifatida gavdalangan bahor ham intoq asosida jonlantirilgan:

Mana qimmatligim, yana bahor kelib,

Seni izlab yurdi, kezdi sarsari.

Qishning yoqasidan tutib so'radi seni,

U ham yosh to'kdi-yu, chekildi nari.

Ushbu bandda qish faslidan keyin bahor faslining kirib kelishi ham o'ziga xos tarzda ifodalangan: go'yoki qish bahorga aniq javob berolmadi, shuning uchun orqaga chekindi.

Shoira bahor obrazida jonlantirish bilan birgalikda o'xshatish san'atini ham qo'llagan ya'ni quyidagi o'rinlarda bahorni shabboda va bo'ronga qiyoslaydi. Bu o'rinda shabboda va bo'ron so'zlari orqali qarshilantirish san'ati ham namoyon bo'ladi.

Seni izlar ekan, bo'lib shabboda,

Sen yurgan bog'larni qidirib chiqdi.

Topmay, sabri tugab bo'ron bo'ldi-yu,

Jarliklarga olib ketdi boshini.

She'rning keyingi bandlarida ham intoqdan keng foydalanilgan, endi bahor obrazi shoiradan yorining sifatlarini keltirib, u haqida yana so'ray boshlaydi va uning "O'rik gullaganda" she'ridan o'rin olgan bir misrani ham keltirib o'tadi:

Qani men kelganda kulib qarshilab,

Qo'shig'i mavjlanib bir daryo oqqan?

"Baxtim bormi deya, yakkash so'roqlab"

Meni she'rga o'rab suqlanib boqqan?

Qolgan bandlar davomida bahor tilidan yorning tasviri – uning jingala sochli, kuychi va xayolchan bo'lganligi keltirib o'tiladi:

O'rik gullariga to'nmaydi nega,

Yelda hilpiratib jingala sochin?

Qani o'sha kuychi, xayolchanyigi

Nechun ko'zingda yosh, turib qolding lol.

She'ning keyingi bandlari o'quvchini o'ziga jalb etmay qo'ymaydi, bahor kelib daraxtlarda kurtaklarning uyg'ona boshlashi, gullarning ochilishi xuddiki bahor yorning vafotidan tutaqib ketganligi va beqarorligidan ro'y berdi:

Alamda tutaqib daraxtga ko'chdi,

Kurtakni uyg'otib so'yladi g'amnok.

Sening yoding bilan yelib beqaror,

Gullar g'unchasini etdi chok-chok.

She'ning so'nggi bandini o'qir ekanmiz, shoiraning naqadar jasoratli yurak egasi ekanligini, hayotsevarligini va qaysidir ma'noda sadoqatli ayol ekanligining yana bir bor guvohi bo'lamiz. Shoirimiz Erkin Vohidov o'zining yuqorida nomi keltirilgan xotirotida sovet shoirasi bo'lgan Vera Inber "Bahor keldi seni so'roqlab" she'ri haqida "Bu qadar og'ir musibatdan so'ng bir yil o'tib shunday umidbaxsh satrlarni bitish uchun qanchalar qudrat kerak", deya ta'kidlaganini keltirib o'tadi. Haqiqatdan ham inson biror yaqinidan ajralsa naqadar og'ir ahvolga, tushkunlikka tushadi. Lekin Zulfiya o'zini tik tutish uchun kuch topa oldi, bir-biridan hayotbaxsh she'rlar yozishda davom qildi:

Hijroning qalbimda, sozing qo'limda,

Hayotni kuylayman, chekinar alam,

Tunlar tushimdasan, kunduz yodimda

Men hayot ekanman, hayotsan sen ham!

### **Xulosa**

Zulfiya she'rlarini o'qir ekanmiz o'zimizda yanada ko'proq hayotga bo'lgan muhabbatni tuya boramiz. Uning she'rlarida qo'llangan badiiy tasvir vositalari she'r mazmunini yanada boyitgan, har bir misraga o'zgacha jilo bag'ishlagan. Bundam tashqari bu vositalar shoira tuyg'ularini yanada chuqurroq yetkazish, inson va tabiat ruhiyatini uyg'unlikda ko'rsatishga xizmat qilgan. U badiiy tasvir vositalarni tabiiy, nozik va nafis tarzda qo'llab o'ziga xos poetik uslub yaratgan. Shoira butun umri davomida o'ziga yuklatilgan insoniylik vazifasini tom ma'noda to'laligicha bajargan deyishimiz mumkin. Chunki bir xalqning shoirasi sifatida kerakli damlarda o'zining tashvishlariga qaramasdan dalda bo'la oldi: ayollar sadoqatini, ularning jonkuyarligini kuyladi, insonlarga umid baxsh etuvchi she'rlarni yozdi, ijtimoiy hayot voqeliklariga befarq qarab turmadi. Uning she'rlari bugungi kunimiz uchun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan va yo'qotmaydi ham.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Rahima Shomansur, Ra'no Rahmon. Ehtirom: xotiralar to'plami. – Toshkent: O'zbekiston, 1995.
2. Zulfiya. Xotira siniqlari: she'rlar. -Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018.